

RELATED TEACHING OF PHONETICS AND PHONOLOGY IS THE LEADING PRINCIPLE OF ORAL AND WRITTEN SPEECH SKILLS ACQUISITION

X. Gulomova

Chirchik State Pedagogical University

Senior Teacher

**ABSTRACT**

The article notes that learning based on the relationship of phonetics with phonology, spelling and spelling is the leading principle for students to master the skills of oral and written speech.

**Key words:** phonology of phonetics, spelling, spelling, oral and written speech, speech literacy, orthoepic pronunciation, spelling pronunciation, spelling, scientific imagination, practical exercises.

**FONETIKA VA FONOLOGIYANI O'ZARO BOG'LIQLIKDA O'RGATISH - OG`ZAKI VA YOZMA NUTQ MALAKALARINI EGALLSHNING YETAKCHI TAMOYILI**

X. G`ulomova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

katta o`qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

Maqolada fonetikaning fonologiya, orfoepiya, orfografiya bilan o`zaro ichki bog`liqligiga asoslangan holda o`rgatish o`quvchilarning og`zaki va yozma nutq malakalarini egallshining yetakchi tamoyili ekanligi haqida so`z boradi.

**Жалит сўзлар:** fonetikaning fonologiya, orfoepiya, orfografiya, og`zaki va yozma nutq, nutq savodxonligi, orfoepik talaffuz, orfografik talaffuz, imlo, ilmiy tasavvur, amaliy mashqlar.

**АННОТАЦИЯ**

В статье отмечается, что обучение, основанное на взаимосвязи фонетики с фонологией, орфографией и орфографией, является ведущим принципом овладения учащимися навыками устной и письменной речи.

**Ключевые слова:** фонология фонетики, орфография, орфография, устная и письменная речь, речевая грамотность, орфоэпическое произношение, орфографическое произношение, правописание, научное воображение, практические занятия.

O`zbek tili o`qitish fanining bosh vazifasi umumiyligi o`rta ta`lim maktablarida o`quvchilarning ona tili lug`at boyligini to`liq o`zlashtirib olishlarini, og`zaki va yozma nutq savodxonligini ta`minlashdir.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o`rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til

birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi.

O'zbek tili o'qitish fani o'quvchilarni til materiallarini kuzatish ishlaridan umumiylashtirishda xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga tayyorlaydi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallahash orqali kirishadilar, til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalarni chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyatga ongli ravishda tatbiq etadilar. Fonetik va grafik ko'nikmalarini shakllantirishda ham shu qonuniyatga asoslanadi.

Fonetika va fonologiya, grafikani o'zaro bog'liqlikda o'rgatish metodik jijatdan quyidagi ko'nikmalarini shakllantirishda ilmiy ham metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo ko'nimalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta.

Fonetik va fonologik bilimi bo'limgan o'quvchilarda **imlo** ko'nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. Fonetika va fonologiya o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini savodli shakllantishda muhim o'rinni tutadi, chunki so'zning tovush tarkibini to'g'ri shakllantirishga uning tovush tomoni o'z ta'sirini o'tkazadi. So'zning tovush tomonidan to'g'ri nusxa ko'chirish tovushlarning og'zaki nutqda qanday talaffuz qilinishiga bog'liq. Ma'lumki, nutq, til qonuniyatlariga e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallahashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmassa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'rur ko'rsatmaliliginini ta'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni talab etadi.

Til juda murakkab hodisa, uning qonuniyatlarini, o'xshashlik va farqlarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. O'quvchi ta'lim jarayonida gaplashish, o'qish, eshitish, yozish orqali til materiallarini yig'adi, uning qonuniyatlarini tahlil orqali o'zlashtiradi. Natijada o'quvchida tilga sezgirlik xususiyati shakllanadi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy tayyorgarligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'quvchi bilan qanday ishish kerakligini ko'rsatadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining og'zaki bog'lanishli nutqini aniqlovchi ish turlaridan foydalanishi, o'quvchiga bilgan tez aytishlarini, she'r, hikoya, maqol, hikmatli so'zlarni ayttirishi va ularning aytishini, aytishi bilan yozilishida farq qiluvchi holatlarni so'rashi orqali unda tilni organizhga motivatsiyani yuzaga keltirishi lozim.

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqni egallahashlarida fonetika va fonologiyadan olgan bilimlarining amaliy ahamiyatini: fonetik bilimga asoslangan holda so'zni to'g'ri talaffuz qilish, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg`uli bo'g'inni farqlash, orfoepik me'oyorga rioya qilish orqali so'zning talaffuzi bilan yozilishi orasidagi oxshashlik hamda farqni anglash, morfologik va so'z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda bir qator imloviy malakalarni (jarangsiz va jarangli undoshlarning imlosini) egallahash mumkinligini anglab yetadilar. Fonetik bilim asoslangan holda gapni ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, logik urg'u va gap qurilishidagi to'xtamlarga rioya qilish gap mazmunini to'g'ri tushunish ko'nikmasini, so'zning tovush tomonini bilish uning ma'nosi orasidagi bog'lanishni tushunib olishga va nutqda so'zlarni ongli qo'llashga yordam berishini bilib oladilar. So'zning tovush tomonini tasavvur qilish ularni to'g'ri talaffuz qilish va to'g'ri yozish uchun zarur.

Tovush - murakkab tushuncha. O`quvchilarda tovush haqida to`g`ri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda yetakchi usul so`zdagi tovushlarniig talaffuzi hamda so`zning leksik ma`nosi so`zdagi tovushlarning tarkibiga bog`liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan so`zlar har xil lug`aviy ma`noni ifodalandi. Shu asosda tovush so`zning eng kichik ma`noli qismi, so`z ma`nosini o`zgartiradigan til birligi tushunchasi shosil qilinadi. Bu o`quvchini so`zning tovush tarkibiga bo`lgan e`tiborini kuchaytiradi.

Fonetik birlik ustida ishlash ta`limning boshlang`ich bosqichidan boshlanadi. Shu davridanoq o`quvchilar diqqati so`zning talaffuzi va eshitilishi o`rtasidagi farqqa yetarli darajada qaratilishi zarur.

O`zbek tilini o`qitish metodikasi tilshunoslikning bo`limlari yuzasidan o`quvchilarda bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishda bo`limlararo ichki bog`lanishga asoslanadi. Jumladan, grafika nutq tovushlarining yozuvdagi ifodasi ekan grafikani o`qitishda nutqning fonetik xususiyatlarga, fonetik bilim, ko`nikma, malakalarni grafikaga asoslanib o`qitish kutilgan natijani beradi. Ikkinchidan, fonetik bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishda o`zbek tilining tovush tizimi, tovushlarning o`ziga xos xususiyatlari, bo`g`in tuzilishi, bo`g`inlab ko`chirishga doir o`ziga xos xususiyatlariga asoslanishni taqozo etadi. Dastlab unli va undosh tovushlar bilan tanishtiriladi. Bunda o`quvchilarning boshlang`ich sinfda egallagan bilimlari aynan takrorlanmasdan mushohada yuritishga undovchi savol-topshiriqlardan foydalanish lozim. Masalan:

-Fonetikka qaysi tovushlarni o`rganadi?

-Qaysi unli tovushlarning talaffuzi bilan yozilishida farq bo`ladi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

-Ko`proq qaysi undosh tovushlarning talaffuzi bilan yozilishi mos kelmaydi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

-Tovushlarning talaffuzidagi o`zgarishlar qanday holatlarga bog`liq bo`ladi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

Ko`pincha o`qituvchilar nutq tovushlarining necha guruhga bo`linishi, talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi og`iz bo`shlig`idan erkin ravishda o`tadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo og`iz bo`shlig`ida to`sinqqa uchraydi), ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra tovusjlarning turi (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba`zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi), qaysi tovush bo`g`in hosil qilishi kabi nazariy savollar bilan cheklanadilar. Aslida tovushlarning xususiyatidan kelib chiqib talaffuzda va yozuvda kelib chiqadigan xatolar baratarf qiladigan ishlarni amalga oshirish lozim.

Tovushlarning so`z tarkibidagi talaffuzi, so`zdagi o`rnining uning talaffuzi va yozuvda ifodalanishiga ta`siri taqqoslash usuli bilan o`rgatib boriladi. Tovush-harf nomutanosibligi bo`lgan o`rinlarda xatoliklarning oldini olish uchun so`zlarning tovush-harf tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, x va h tovushlari va ularning yozuvda ifodalanishi quyidagi tartibda tushuntirildi:

Bu nima? (darsaxtning shoxi ko`rsatiladi) Bu kim? (Podshoning rasmi) doskaga ikkita rasm ilinadi. So`z oxiridagi tovushlarning aytilishi bilan yozilishini taqqoslash. 1-rasmni ifodalagan

so`zni aytинг va yozing. 2-rasmni ifodalagan so`zni aytинг va yozing. ( shox shoh) Shu so`zlarning oxirida kelgan tovush qanday aytilyapti? Bu so`zlar qaysi tovushiga ko`ra farqlanyapti? Bu tovushlarni biri o`rnida ikkinchisini aytish qanday xatoni keltirib chiqaradi? (imlo va mantiqiy xatoni)

Shundan so`ng x va h tovushlari talaffuzi, imlosi va ma`no farqlashdagi xususiyati quyidagi izchillida o`rganiladi:

### 1-jadval

X va h undoshlarining imlosi	
X	H
xil-xil	hil-hil
xam	ham
xol	hol
xush	hush

#### Jadval ustida ishlash uchun 1-tur topshiriqlar:

1. Audioni eshititing. X va h undoshlarining talaffuzini eslab qoling.
2. So`zlarni o`qing.
3. Ularning talaffuzidagi farqni aytинг.
4. So`z ma`nolaridagi farqni misollar asosida izohlang.

#### Namuna:

**xil-xil** – turli xil (matolar) – **hil-hil** – yumshoq (pishgan shaftolilar)

**xol** -yuzidagi qora xol(xoli o`ziga yarashgan) – **hol** - ahvol (ahvoli yaxshi)

**xush** – ... ( xush kelibsiz) – **hush** - (hushi boshidan uchdi)

**xam** –egildi (boshi xam bo`ldi) – **ham** - so`zlarni bog`laydigan so`z (Saida ham Sojida keldi).

#### Mustaqil fikrlashga undovchi 2-tur savol-topshiriqlar:

1. O`ylang, x va h undoshlari so`zlarda qanday o`zgarishlar hosil qilar ekan?
2. O`zbek tilidagi x va h harflari qaysi tovushlarni ifoda etadi? Fikringizni asoslang.
3. X va h tovushlarining talaffuzida qanday farqni kuzatdingiz? So`zlarni yozishda ularni qanday farqlash mumkin?

#### X va h undoshlarining talaffuzi va imlosini mustahkamlovchi mashqlar.

“Tushirilgan harfni topib qo`y!” o`yini. Doskaga x va h harfi tushirilgan so`zlar terib qo`yiladi. O`quvchilar kesma x va h harflaridan mosini o`rniga qo`yib, so`zni o`qiydi. Fikrini asoslaydi.

#### Rasm diktant

O`qituvchi doska tagligiga x va h undoshli narsalar rasmi terib qo`yiladi. O`quvchilar ularning nomini 2 guruhgа ajratib yozadilar. Yozgan so`zlarining talaffuzi va imlosini asoslab berishadi.

“Yo`qolgan harfni top” texnologiyasi. O`quvchilar kesma harflar ichidan x va h harfidan mosini olib nuqta o`rniga qo`yadi.

X va h harfi bilan farqlanadigan so`z zanjiri hosil qilinadi.

Jarangli va jarangsiz undoshlarning so`zdagi o`rinlashishi uning talaffuzida o`zgarishni yuzaga keltiradi va o`z navbatida yozuvga ta`sir o`tkazadi. Jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va yozilishi ustida quyidagi tartibda ishlanadi

1-жадвал

VA	UNDOSHLAR
baqir – paqir	zina – sina
gul – kul	tuz - tus
dil - til	joy – choy
<p>Juftlab berilgan so`zlarni o`qing.          Ular qaysi tovushi bilan farqlanyapti?          So`z ma`nosini farqlab berayotgan tovushni aniqlang.          Shu tovushlarning talaffuzidagi farqni izohlang.</p>	
tu. - .ut	obo.-.ori
ku. -zo`r	ofto.-.ot
<p>Nuqtalar o`rniga zarur harfni qo`ying va oqing. So`zlarning          talaffuzi bilan yozilishini izohlang.</p>	
<p>O`ylang! Siz qo`yan harflar qaysi so`zda boshqa tovush kabi o`qildi? Sababini izohlang.</p>	
<p><b>So`z oxirida qaysi harfni yozishni qanday aniqlaysiz?</b></p>	
kitob+ ... =	maqsad + ... =
javob+... =	tuz + ... =

Jarangli va jarangsiz undosh undosh tovushlar talaffuzini **kuzatish va taqqoslash usulida** tanishtiriladi.

Jufti yo`q jarangli va jufti yo`q jarangsiz undoshlar undoshlar ustida quyidagicha ishlanadi: O`quvchilar jufti yo`q jarangli va jufti yo`q jarangsiz undoshlarning har xil fonetik sharoitda talaffuzini qilishni kuzatadilar. Buning uchun so`z oxirida yoki unli tovushdan oldin kelgan ko`l, bilim, otam, olmos; quyon, bino; shifoner, fabrika; tong, singil; qo`y, kiyik kabi so`zlardagi jarangli undoshning talaffuzini taqqoslaydilar va l, m, n, r, ng, y jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda, ovoz va shovqin eshitilishini, yaoni jarangli undosh tovush ekanini, bularning jarangsiz jufti yo`qligini (jufti yo`q jarangli undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Xuddi shunga o`xshash usulda o`quvchilar q, h undoshlari talaffuz qilinganda, faqat shovqin eshitilishini, jarangsiz undosh tovush ekanini, jarangli jufti yo`qligini (jufti yo`q jarangsiz undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Kuzatish natijasi xattaxtaga quyidagi ko`rinishda yoziladi (yoki kartonda tayyorlangan ko`rgazma ko`rsatiladi):

**Jufti yo`q jarangli undoshlar:** l, m, n, r, ng, y

**Jufti yo`q jarangsiz undoshlar:** q, h

Bu kabi tahlillar asosida o`quvchi nazariy bilimlarni o`zlashtirib olishi nazarda tutilayotgani yo`q, aslida qaysi tovushlar qaysi o`rinlarda kelganda, talaffuzida o`zgarish bo`ladi, qaysi tovushlar talaffuzda o`zgarishsiz aytiladi degan tushunchalarni egallaydilar.

#### REFERENCES

1. Muratova, N. B. (2021). NUTQNING IXTISOSLASHUVI. Scientific progress, 2(7), 1263-1266.
2. Muratova, N. B. (2022). MULOQOT JARAYONIDA PARALINGVISTIK VOSITALARNING O'RNI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(1), 39-43.

3. Muratova, N. B. (2021). DISKURS JARAYONIDA ADRESANT VA ADRESATNING NOLISONIY VOSITALARDAN FOYDALANISHI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1197-1203.
4. Musayevich, S. A., & Temirovna, K. G. (2021). Linguoculturology in linguistics features of lingvokulturemas in the creativity of rauf parfi. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 39-42.
5. Mukhiddinovna, A. M. (2022). Programming language python methodology for creating and using didactic materials for students. Galaxy international interdisciplinary research journal, 10(5), 63-67.
6. Muxtarova, S., & Umaraliyev, H. (2022). Pedagogik texnologiya–barkamol insonni shakllantirish faoliyati. Involta Scientific Journal, 1(7), 222-226.
7. Normurodov, C. B., Mengliev, S. A., & Mengliev, I. A. (2018). Tashkent.: Problemy v vychislitel'noj i prikladnoj matematiki.
8. Normurodov, C. B., Mengliev, S. A., & Mengliev, I. A. (2018). Issledovanie zavisimosti koefficientea soprotivlenija ot chislo Rejnoldsa v neszhimaemyh vjazkih zhidkostjah.(p. 60). Tashkent.: Problemy v vychislitelnoj i prikladnoj matematiki.
9. Mehri, S. (2022). The problem of social adaptation of migrant adolescent children. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 108-113.
10. Kadirova, Z. Z. (2021). Some comments on the interpretation and contrast aspects of the terms “Paraphrase” and “Periphrase”. Theoretical & Applied Science, (6), 486-489.
11. Kadirova, Z. Z. (2021). Periphrases in the prose works of Alisher Navoi. Theoretical & Applied Science, (6), 574-579.
12. Kadyrova, Z. (2021). The lexical units in the formation of periphrasis (on the example of periphrases in the prose works of Alisher Navoi). Журнал филологических исследований, 6(2), 17-23.
13. Kadirova, Z. Z. (2021). Nominativ features of the periphrases. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(2), 220-225.
14. Bazarova, E., & Kadirova, Z. (2020). Practical knowledge of the stone names in linguistics. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 178-181.
15. Kadirova, Z. Z. (2019). Principles of differentiation of periphrasal and euphemic units. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 269-273.